



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi an'anaviy VII respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

*mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

Toshkent – 2023

Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. –500 b.

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası tomonidan tayyorlangan.

Mas'ul muharrir:

G. Jo'rayeva – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Taqrizchilar:

R. Niyozmetova – Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori.

A. Sobirov – Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

K. Mavlonova	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
M. Tuychiyeva	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası dotsent v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
D. To'xliyeva	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.
S. Kuldasheva	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi
H. Maqsudov	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi.
J. Nurmuhammadov	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti Kengashining 2023-yil 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Nabijanov Y. Grafik organayzer – infografikalar va ulardan foydalanish	112
Jazilova M. Matn ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	117
Nazarova D. Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g'oyalari talqini	127
Inomjonova S. O'zbek bolalar adabiyotida fantastik asarlar o'rganilishining ahamiyati	134
Nurmuhammadov J. Adabiy laboratoriya: podkast yaratish mashg'ulot turi sifatida	144
Norqulova M. Xalq og'zaki ijodini o'qitishdagi muammolar tahlili (5-sinf darsligi misolida)	150
Elboyeva M. Uzluksiz adabiy ta'lim dastur va darsliklarida bolalar adabiyotini o'rganish masalasi	155
Yuldasheva M. Adabiyot darslarini tashkil etishda ijodiy individuallik	160
Shukurboyeva O. Kompetentli shaxsni shakllantirishda adabiyot darslarining o'rni	164
Karimova Y. Poetik tafakkur masalasining o'rganilishi	169
Ulug'murodova K. Temuriylar davri she'riyatida Layli timsoli (Atoyi va Sakkokiy ijodi misolida)	175
Jumaniyozova I. Ijod maktablarida mumtoz namunalarning o'qitilishi	182
Musaeva O. O'zbek tili va adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka chorlash	187
Qayimova Sh. Adib estetikasining shakllanishida ijtimoiy omillarning o'rni	195
Abdullayeva M. Bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslari	201
Abdurashidova Sh. Ta'sir va tipologiya	206
To'g'onova D. Adabiyotni o'rgatish yo'llarini o'rganish (dramatik asarlar misolida)	212
Narziyeva M. Dramatik asarlarni sahnalashtirib o'qitish usullari	216
Anvarova Z. Mustaqil ishlar vositasida o'quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o'rgatish	221

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA IJODIY INDIVIDUALLIK

Maxmuda Yuldasheva

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada individuallik, ijodiy individuallik, o'qitishning evristik usullari, evristik yondashuvlar hamda adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, individuallik, ijodiy individuallik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, o'yinlar.*

Keng jamoatchilikka ma'lumki, individ, individuallik tushunchasi ilm-fanda turli ma'nolarda ishlatiladi. Ularning asosiylarini ko'rib chiqsak, masalan, biologiya fanida bu tushuncha biror organizmga xos irsiy yoki keyinchalik paydo bo'lgan xususiyatlarning o'ziga xosligini ifodalaydi; psixologiyada esa muayyan bir shaxsning fikrlashi, sezgisi, irodasi, istak va intilishi, ehtiyoji, qiziqishi, kayfiyati, hissiyoti, ahvoli, xatti-harakati, odati, mayli, qobiliyati va boshqa sifatlarini, shuningdek, mijozi va tabiatining o'ziga xosligini anglatadi. Ijtimoiy fanlar yo'nalishida bu tushuncha individuallik olomonga, guruhga zid tushuncha sifatida o'rganiladi.

Insonning tug'ilishidan tortib so'nggi nafasi qolgunigacha bo'lgan davrda ya'ni bosib o'tgan umr yo'lida pog'onama-pog'ona o'zligini topib boradi. Shunday ekan, hayotimizda bo'ladigan har bir hodisa, uchraydigan har bir odam biz uchun tajriba bo'lib, bizni individdan individuallikkacha o'zgartirib, yuksaltirib boradi.

Adabiyotshunoslikda individuallik tushunchasi asardagi badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari asar sujetida qay darajada hayotiy, haqqoniy aks ettirilganini ko'rsatadigan mezon bo'lib xizmat qiladi. Va shu bilan birga, badiiy asar qahramonining o'ziga xosligi, uning milliyligi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilashda

muhim ahamiyatga ega. Har bir yozuvchining o'ziga xos tili va uslubiga oid belgilar ham individuallikni tashkil etadi.

Har bir o'quvchi kitob mutolaa qilishi jarayonida, asar qahramonlari ichki ruhiyatini uqishi jarayonida va, aniqroq qilib aytganda, insonning mohiyatini tushunishga harakat qilishi jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki-yashirin xususiyatlarga ham ega ekanligini, asarda har bir qahramon ma'lum bir vazifani bajarishini, ularning harakati, fikrlashi va so'zlashida ma'lum bir xarakter xususiyatini ochib berishga xizmat qilishini, umumiy qilib olganda, mana shu xususiyatlar birlashgan holda individ, shaxs, individuallik tushunchalarida aks etuvchi muayyan obrazni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini his qiladi.

Umumta'lim maktablarida olib boriladigan adabiyot darslarida asar voqealari orqali berilgan biror-bir hayotiy haqiqatni ijodiy yondashgan holda mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq ta'lim metodlaridan biri – evristik metodidir. Bu metod orqali har bir o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan individual ijodkorligi, topqirligi namoyon bo'ladi.

Adabiyot fani o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda fikriy jarayonlarni ko'rgazmali tashkil etish bir qancha afzalliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bular quyidagilar:

- o'quvchilarni faollashtiradi;
- ijodiy yondashtiradi;
- vaqtni tejaydi;
- qiziqishini orttiradi;
- mustaqil fikrlashga undaydi;
- idrok qilish ko'lamini kengaytiradi [Mirzayev, 2014: 6].

Haqiqatdan ham, darsni zerikib tinglayotgan o'quvchi o'tilayotgan mavzuni yaxshi anglamaydi, fanga oid berilgan ma'lumotlarni yaxshi eslab qolmaydi, shu sababli darsni jonli o'tish uchun turli xil ko'rgazmalardan, topshiriqlardan va didaktik o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot fani o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri barcha o'quvchilarning ijodiy faoliyati, ijodiy qobiliyati va ijodiy individualliklarini har tomonlama rivojlantirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlashdan iborat bo'lib qolmay, shu bilan birga, muayyan sohalardagi qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatlarini

aniqlash va bundan keyingi rivojlanishlari uchun imkoniyatlarni yaratib berishdan iborat. Buning uchun o'quvchilarning ijodiy individualliklari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan shakl, metod va vositalarning ahamiyati, ta'sir darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu jarayonda esa o'qituvchining sa'y-harakatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi o'qituvchi ta'lim oluvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga oid kreativ fikrlashga o'rgatishi, dars jarayonida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirishi, bilishga doir eng maqbul innovatsion texnologiyalardan, natijaviy zamonaviy metodlardan, va asosiysi, eng ilg'or sinalgan shakl va vositalardan foydalanishi o'quvchilarning individual ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng samarali amaliy ish hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarimning tasdig'i sifatida ayrim tajribalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman. Men o'z darslarimni o'tish qulay va jonli bo'lishi hamda o'quvchilar xotirasida mustahkam saqlanib qolishi uchun turli ko'rgazmali qurollar bilan birga mavzuga doir topshiriqli kartochkalar, grafikli mantiqiy topshiriqlar ishlab chiqaman. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilaman.

Masalan, Abdulla Qahhor ijodini o'tayotganimda quyidagi topshiriqni beraman:

Siz o'qigan asarlaringizda epigraflar voqealarni ochishda nechog'lik xizmat qilgan? Agar siz bu epigraflarni ma'qul deb bilmasangiz, uning o'rniga qanday epigraflar tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

Asar nomi va muallifi	Muallif tanlagan epigraflar	Asardagi ahamiyati	Mening tavsiyam

Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar uch yoki undan ortiq asarlar va ulardagi epigraflarni yozadilar va kerakli o'rinlarda o'z tavsiyalarini beradilar.

Keyingi topshiriqda esa, 8-sinfda o'rganilgan Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" asari asosida quyidagi ***jadvalni "asar ichida" va "asar tashqarisida" turib to'ldirish*** topshiriqini beraman:

O'zingiz	Vaziyatlar	Javobingiz
Asar ichidasiz: Inod sifatida	Ushbu mushkul vaziyatdan qanday chiqqan bo'lar edingiz?	
Asar ichidasiz: Egamberdi sifatida	Inodni qutqara olarmidingiz? Qanday qilib?	
Asar tashqarisidasiz: Kitobxon sifatida	Asar qahramoniga qanday maslahat berar edingiz?	

Ushbu topshiriqdagi uchinchi ustunni har bir o'quvchi individual yondashgan holda mustaqil ravishda to'ldiradi.

Murakkab, o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularni o'quvchilar tomonidan oson va tez o'zlashtirilishi uchun turli xil usullar va didaktik o'yinlardan foydalanaman. Darslarda mavzuni chuqurroq o'rganish maqsadida darslikdan tashqari berilgan manbalar, masalan, o'rganilayotgan asar (she'r, hikoya, qissa va h.k.)larning yozilish tarixi, asar qahramonlari va voqealari tadqiq va tahlil etilgan maqolalar, asar sujeti asosida yaratilgan multfilm, badiiy film, spektakl, videofilm yoki hujjatli filmlarni ko'rib, taassurot yozib kelish, yoki badiiy asardagi asar qahramonlari, joylar va ifoda etilgan tabiat tasvirlarini asarning boshqa talqin (multfilm, badiiy film, spektakl)lar bilan qiyoslab, jadvalga solishtirma usulida yozib kelishlarini topshiriq sifatida beraman. Masalan, bu topshiriqni bajarishda quyidagi jadval o'quvchilarga havola etiladi.

Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar" asari va asar sujeti asosida suratga olingan badiiy filmning solishtirma jadvali	
Mushtarak tomonlari	Farqli tomonlari

Topshiriqni bajarishda o'quvchilar 8-sinf adabiyot darsligida berilgan Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar" asarining ikki xil talqinini mustaqil tarzda solishtirib tahlil qiladilar.

Mavzuni mustahkamlash darslarida esa o'quvchilarimga uyga vazifa sifatida asarning g'oyasi, mohiyati ochib berilgan o'rinlardan yoki qahramonlar ishtirokidagi diologlar, monologlarni ifodali o'qib, audiomatn ko'rinishida tayyorlab kelishni loyiha ishi sifatida

beraman. Yuqoridagi topshiriqlar o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan bajariladi.

Bu usullar orqali o'quvchilar asar matni bilan yaqindan tanishadilar, qahramonlar holatini, ruhiyatini ich-ichidan his etib, asar mohiyatini yaxshiroq anglaydilar, mustaqil izlanishlar olib borishlari natijasida mavzuga ijodiy yondasha boshlaydilar.

Ma'lumki, ta'lim har doim yangilanishga, izlanishga va kreativ yondashuvga mushtoq. Shuning uchun iloji boricha ta'limning yangi usullarini ishlab chiqishga, o'quvchilarni adabiyotga, umuman, barcha fanlarga qiziqishlarini o'stirish ustida izlanishimiz zarur. Bu hozirgi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev M. Adabiyot fanida grafik organayzerlar// Til va adabiyot ta'limi. 2014, 6-son. – B.6.
2. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 204 b.
3. 8-sinf adabiyot darsligi (II qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 248 b.
4. 9-sinf adabiyot darsligi (I qism): darslik/ J. Nurmuhammadov, S. Qambarova, O. Olimjanov, M. Yuldasheva, S. Inomjonova . – Toshkent: Adast poligraf, 2022 . – 224 b.